

## **CHET TILLARINI O'RGANISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLARNING AHAMIYATI**

**Anvarova Farangizbonu Ulug'bekovna**

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti

Ingliz Filologiyasi 3-kurs talabasi

**Ilmiy rahbar: Yuldasheva Nargiza**

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada turli chet tillarini o'qitishda turli xil metodlardan va o'quv materiallaridan foydalanishning ahamiyati borasida fikr yuritiladi. Bunda interfaol metodlar bilan birgalikda doimo qo'llanilib kelingan an'anaviy ta'lim berish usullari taqqoslab, aniq kuzatuvlar asosida so'ngra yakuniy natijaning xulosalari berilgan.

*Kalit so'zlar.* Interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv an'anaviy dars, zamonaviy texnologiyalar, IELTS, CEFR.

Hozirgi davrda chet tillarini o'qitish va o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. So'nggi yillarda ta'lim borasida yurtimizda olib borilayotgan chora-tadbirlar ham xorijiy tillarni o'rganish va uni amalda tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Unga ko'ra kollej, litsey, oliygoh va maktablarda rus tili bilan birgalikda, ingliz, nemis, fransuz kabi tillar ham o'qitilish yo'lga qo'yildi va ko'nikma hamda malakalarini baholashning umumyevropa talablariga mos keladigan uslublari ishlab chiqildi.

Bilamizki, har qanday chet tili fani to'rtta muhim aspekt (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish)ga bo'lib o'rganiladi. Bu har bir jihatdan alohida malaka va tushunchalar berish jarayonida ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni olib kirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish demakdir. Xususan, xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishda bunday kommunikativ texnologiyalardan foydalanishning bir qancha ahamiyatli ustunliklari mavjud. Hozirda chet tili ko'nikmalarini baholashning IELTS, CEFR, TOEFL kabi testlari ishlab chiqilgan. Bu jarayonlarda texnologik vositalardan foydalanish chet tilining

har bir aspektini o'rgatishda noan'anaviy hamda interfaol topshiriqlar kabi zamonaviy yondashuvlar bilan qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish qismi uchun, albatta, turli qurilmalar, player, CD disklersiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababdan ham zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanish talab etiladi.

Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi, bundan tashqari harakatli o'yinlar vositasida o'quvchilar diqqati dars jarayonida bir joyda jamlashni ta'minlaydi. Interfaol metod ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va foydalanish imkoniyati, maruzalar soni kamligi, lekin seminarlar ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishiga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda imkon yaratadi. Bu o'z o'rnida ta'lim jarayonida noodatiy innovatsion interfaol topshiriqlar tizimini hamda dars tashkil etishni talab etadi.

Interfaol usullarda asosiy e'tibor faqatgina o'qitish, bilim berishga emas, balki ularning fikrlari to'g'ri yoki noto'g'riligidan qat'i nazar fikrlashga undashga, darsga jalb qilishga qaratilgan. Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressive usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Dars jarayonini oqilona tashkil etishda o'quvchilarni rag'batlantirib turish, turli kichik-kichik materiallardan foydalanish, mavzuga oid savollar berib aqliy hujum tashkil etish, muammoli vaziyatlar berish, bahs-munozaralar o'tkazish, kichik guruhlarda ishlash kabi metodlar katta ahamiyatga ega va bu har qanday past o'zlashtiruvchi o'quvchini ham o'z ustida ishlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'qitish jarayonlarida innovatsion metodlardan foydalanish natijasida o'quvchilarning nutqi ravonlashadi, aqliy va

mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, to'g'ri va tez javob berish ko'nikmalari shakllanadi. Bu kabi interfaol usullar o'quvchi va talaba yoshlarni nafaqat bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi balki, psixologik jihatdan ruhlantirib turadi. Natijada o'quvchilar dars jarayoni uchun puxta tayyorgarlik ko'rishni boshlaydi va ta'lim sifatini oshiradi. Ta'lim-tarbiya sohasi o'z oldiga yetuk, barkamol, erkin fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilib olar ekan, kelajakda biz yosh bo'lajak o'qituvchilar ham interfaol metodlardan samaraliroq foydalanishning yo'llarini o'ylab chiqishimiz va Vatanimiz ravnaqi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz darkor.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Bekmurodova.U.B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat.. Toshkent 2012-yil.
2. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma), Navoiy. 2006,40 bet
3. Yoqubov I. "Ingliz tili o'qitish metodikasi", (o'quv qo'llanma). Toshkent, Sharq nashriyoti. 2003-yil
4. O'. Hoshimov, I. Yoqubov. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003 F.M. Muminova

### **EXPLORING THE USE OF DIGITAL TOOLS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING**

**Ashuroxunova Sevinch,**  
UzSWLU, Faculty of English  
Philology, Tashkent

***Abstract.** The integration of digital tools into educational practices has reshaped teaching and learning, particularly in language education. This article explores the benefits and challenges of incorporating digital tools in English Language Teaching (ELT) and examines innovative practices leveraging technology to enhance language acquisition. The thesis concludes that technology*